"MU'INU-L-MURID" ASARIDAGI AYRIM OBRAZLAR TAHLILI

Abduqodirova Zarnigor
Mustaqil izlanuvchi,
E-mail: zarnigorabduqodirova077@gmail.com

Qabul qilindi: 21.10.2025
Ko'rib chiqildi: 22.10.2025
Tasdiqlandi: 23.10.2025

Kalit so'zlar:
obraz, obrazlar tizimi, an'anaviy obrazlar, ilohiy obrazlar, valiylar va avliyolar obrazi.

Keywords:
Image, system of images, traditional images, divine images, images of saints and saints.

Ключевые слова:
образ, система образов, традиционные образы, божественные образы, образы святых и праведников.

Annotatsiya. Maqolada XIV asrda Sharq mumtoz adabiyotida yaratilgan "Mu'in ul-murid" didaktik asarida tilga olingan ayrim obrazlarga to'xtalib o'tilgan. Obrazlarning asarda tutgan o'rni va mazmuni haqida munosabat bildirilgan. Shuningdek, asardagi obrazlar haqidagi ilmiy ma'lumotlar va ularga munosabat, obrazlarning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Abstract. The article deals with some images mentioned in the didactic work "Mu'in ul-murid", created in the classical literature of the East in the 14th century. The role and content of the images in the work are discussed. Also, scientific information about the images in the work and the attitude towards them, the specific characteristics of the images are revealed.

Аннотация. В статье рассматриваются некоторые образы, упомянутые в дидактическом произведении «Му'ин ул-мюрид», созданном в классической литературе Востока в XIV веке. Рассматриваются роль и содержание образов в произведении. Приводятся научные сведения об образах произведения и отношении к ним, раскрываются специфические особенности образов.

Kirish. Shayx Sharaf asarini ma'nolar mavj urgan ummonga o'xshatish mumkin. Garchand shoir ijodi yillar mobaynida she'riyat shaydolari, olim-u fuzalolar tomonidan o'rganilayotgan bo'lsa ham, bizni hayratga soluvchi mo'jizakor sir-sinoatlar, kashf etilmagan qirralari hadsiz, hisobsiz. Tafakkur va idrokka "g'avg'o" soluvchi, dunyo charxi kabi tinmay shoshayotgan, nafs va iymon sarhadida sarosar qalblarni bir oz to'xtab, mushohada etishga chorlovchi, tasavvufiy-irfoniy tushunchalarga limmo-lim "Mu'inu-l-murid" asarida Shayx

Sharaf Qur'on oyatlari, hadis hikmatlari va shariat ahkomlarini badiiy vositalar va yorqin timsollar orqali tasvirlashga harakat qildi. Ko'p asrlik o'zbek adabiyoti har qanday badiiy asarning g'oyaviy estetik ta'siri undagi shaklning mazmun bilan uyg'unlashuviga, bu hodisaning betakrorligiga bog'liq bo'lib, bu ko'rinishlar asar kompozitsiyasida namoyon bo'ladi. Zero, unda muallif munosabati hal qiluvchi vazifani o'taydi. Turkiy tilda yaratilgan epik, lirik hamda dramatik asarlarda rang-barang mazmun va mavzulardagi asarlarda zulmkor, dunyoga mehr va muhabbat qo'ygan shaxslar badiiy talqiniga keng o'rin beriladi.

Asarda komil inson, insonning yaratganning marhamatiga yetishish uchun nafsni yengib o'tishga kuchli istak va iroda bo'lishi lozimligini muallif poetik obrazlar orqali ifoda etadi. Payg'ambarimiz hayotini tasvirlar ekan u keltirgan betakror mujdalar, o'zini azobga qo'yib bo'lsa-da, xalq uchun ezgu ishlarni amalga oshirish badiiy tasvirlanib, ibrat bo'ladigan jihatlari keng yoritiladi.

Sharq mumtoz adabiyotining asosiy mavzularidan biri e'tiqod va ma'rifat ekani ayon. Mumtoz shoir-u adiblarimiz asarlarida bu mavzuning badiiy talqini, odatda, ikki shaklda namoyon bo'ladi. Birinchidan, sof badiiy asarda e'tiqod va ma'rifat personajlar xarakteriga, obrazlar mohiyatiga singdirib yuboriladi. Ikkinchidan, ilmiy-ma'rifiy yo'nalishdagi asarlarda, odatda, shar'iy ilmlar asoslari ta'sirli badiiy uslub orqali ifodalanadi. Shayx Sharafning "Mu'inu-l-murid" asari ikkinchi turga mansub bo'lib, ma'rifat va e'tiqod personajlar xarakteriga, obrazlar mohiyatiga singdirib yuborilgan. Asarning obraz va timsollar tizimini quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin:

1. An'anaviy obrazlar.
2. Ilohiy obrazlar.
3. Valiylar, shayx-u avliyolar obrazlari.

Muallif inson zotini aziz va mukarram qilib yaratgan Alloh nomini doimo dilda saqlash zarurligini dostonning hamd qismida keltirib o'tadi. Sharq dostonchiligida o'rta asrlarda barcha asarlar Xudoning madhi bilan boshlangan. Shayx Sharaf ham o'z dostonini shu an'anaga amal qilgan holda Alloh hamdi bilan boshlaydi. Unda shoir hamma narsani yaratgan Xudoning osmon va quyoshdan tortib har bir zarrani, butun o'simliklar va hayvonot olamini, kishilik jamiyatini o'z yuksak aqli, har bir insonga mehri bilan boshqarib, harakatga keltirib, bir-biriga bog'lab, qovushtirib turishini katta zavq-shavq bilan tasvirlaydi. Allohning shunday mehribonchiligi uchun olamdagi hamma narsa har bir zarra unga minnatdorchilik bildirib, shukr etib, unga hamd-u sano o'qiydi.

Biling La Ilaha temek ne bolur
Ididin o'ngin yok chig'ay bay kilur
Aziz xor kilig'li, ruzi berguchi
Bir Allah o'ngin yok temeklik bolur.

Aytish kerakki, Allohni anglash va unga mehr qo'yish, Allohga xos yuksak sifatlarni ulug'lash diniy-tasavvufiy adabiyotga xos an'anaga aylangan. Allohning, shubhasiz, birligi va tanholigini bayon etishda muallif ham salaflariga

ergashdi. Shayx Sharaf Allohning mislsiz qudratidan hayratlanadi. Ana shu ilohiy qudratni Yer bilan Osmonni ustunsiz, past-u balandsiz muallaq tutib turganligida, Osmonda Oy bilan quyoshni yaratib, dunyoni charog‘on etganligida ko‘rdi. U hamma narsaga qodir. Bu qisqa aql uning qudratidan qay birini bayon etishga ojiz. Agar bu inoyatlar Allohdan bo‘lmasa, qisqa aql va qisqa til nima ham deya olishi mumkin:

Sen o‘k sen yaratgan bu yer ko‘k kun oy
Bu kuz qish kerek yaz kerek bo‘lsu yay
Bu yokni bar kilib bar kamug‘ barni yok
Kilig‘li g‘ani sen kamug‘ halk chig‘ay.

Asarning birinchi bobida Muhammad (s.a.v.)ning umumiy timsoli yaratilgan bo‘lib, bu timsol asarning boshqa boblarida ham ishtirok etadi. Shuningdek, ushbu asarda tasavvufiy shaxslar obrazlari ham o‘ziga xos badiiy shakl va mazmun bilan asosiy qahramon darajasiga ko‘tarilgan. Chunonchi, asarda Junayd Bag‘dodiy, Abu Yusuf, Shayx Shibli kabi tarixiy shaxslar badiiy obrazlari keltiriladi.

Shayx Sharaf komil inson darajasiga yetishgan Muhammad (s.a.v.)ni o‘rnak sifatida ko‘rsatib, mana sening asl holing qanday, sen o‘sha holingga qaytishing kerak degan ma’noda o‘z zamondoshlarida xitob qiladi, ularni ogohlantiradi.

Asarda zo‘rma-zo‘raki kiritilgan biror obraz, timsol, so‘z yoki ibora yo‘q. An’anaviy obrazlar sifatida payg‘ambarlar timsollarini olishimiz mumkin. Asarda Odam alayhissalom, Sulaymon, Muso, Nuh alayhissalom kabi payg‘ambarlar nomi zikr qilingan. Adabiyot, ayniqsa, irfoniy adabiyot maqsad-mohiyati, obrazlar olamini ilohiyot va tarixga oid bilimlarsiz teran hamda xolis tahlil-u talqin etish aslo mumkin emas. Tasavvuf manbalarida ham shariat amrlarini ado etmasdan tariqat amaliyotiga o‘tish, ma’rifat mushohadasisiz esa haqiqat sirlariga yetish imkonsizligi ta’kidlangan. Go‘yo “qalam yozishiga arzirli”, deya tan olgan kitoblaridagidek, uning asarlarida ham surat va ma’no, zohir va botin, vujud va ruh, shariat va tariqat har doim mushtarak. Muallif asarda eng ko‘p murojaat qilgan obraz bu Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarimizdir. Muhammad (s.a.v.) payg‘ambar siymosi asarda yangi dinning asoschisi, mo‘jizakor yoki o‘zining go‘zal axloqi bilan hammaga namuna bo‘la oladigan sifatidagina emas, balki komillik timsoli bo‘lgan Hazrati Inson qiyofasida gavdalanadi.

Yana yuz yigirma taqi to‘rt mingi
Rasul anbiyalar ekinch so‘z ongi
Eger artuk eksuk yakin bilmeseng
Erur evvel Adam, Muhammed so‘ngi.

Shayx Sharaf kitobning hamd va iymon bo‘limidan keyingi bir bo‘limni nat qismiga bag‘ishlagan. Ushbu bobda muallif payg‘ambarimizni “zul-jalol” deya ta’riflab, “Kelami-zulal”da ya’ni Qur’oni karimda ham Muhammad (s.a.v.)

haqida xabar kelganini ta'kidlagan. Asarda, shuningdek, meroj kechasi hamda payg'ambarimiz (s.a.v.)ning mo'jizalari haqida so'z boradi:

Kamer para boldi isharet bile
Katig' tash ma keldi katinde tile
Taki bilgil ensari og'lanlari
O'lup baz tirildi muni ked bile.

Asarda, shuningdek, Odam alayhissalom, Nuh alayhissalom, Muso alayhissalom va Qobil va Hobil obrazlari ham mavjud. Odam alayhissalomning payg'ambarlarning eng birinchisi bo'lganligi ta'kidlangan:

Yana yuz yegirme taki to'rt mingi
Rusul enbiyalar ekinch so'z ongi
Eger artuk eksuk yakin bilmeseng
Erur evvel Adam, Muhammed so'ngi.

Bu o'rinda yuz yigirma to'rt ming payg'ambar o'tganligi, ular Odam (a.s.)dan boshlanib to Muhammad Mustafoda tugagani qayd etilgan.

Nuh alayhissalom kitobning "Va'z va nasihatlar" bo'limida bayon etilgan:

Bu jumla halayiq musafir mengiz
Taki dunye tupsuz kirig'siz tengiz
Ug'an zikri birle bulung'ay tiling
Eger Nuh neji teg aman kolsangiz.

Shayx Sharaf Odam (a.s.), Nuh (a.s.), Muso (a.s.) kabi payg'ambarlarimiz obrazini keltirish orqali o'z xulosalarini chiroyli dalillagan. Shu bilan bir qatorda ularning go'zal sifatlarini keltirib, o'quvchiga komil bir inson sifatida namuna qilib keltiradi. Asarda salbiy illatlar qoralanib, shu o'rinda "Qobil va Hobil" haqidagi rivoyat bayon qilingan. Kishilardagi kibr, hasad kabi sifatlar qoralanib, kibrlilik va hasadgo'ylik mo'minlarni kofirlikka boshlovchi salbiy illatlar ekanligi ayni shu rivoyat orqali ko'rsatib berilgan.

Shayx Sharaf na'tdan keyingi to'rtliklarni sahobalarga bag'ishlagan. U o'ttiz uch ming sahoba va do'stlarning Allohning bir-u borligiga iymon keltirgani, Muhammad (s.a.v.) Alloh rasuli ekanligini tan olgani va islomda-iymonda sobit turgani uchun jannatga sazovor bo'lganini aytgan. To'rt muqarrab sahoba haqida esa alohida to'xtalgan:

Yana to'rt mukarreb sahaba uze
Tuman ming bu gufran u rizvan seza
Ebu Bakr-u Faruk[1], bu Osman, Ali
Olar zikri birle bulur can meze.

Hikoyatlarda tarixiy shaxslar, tarixiy voqealar bayon qilinganligi bilan bu asarni tarixiy voqealardan tuzilgan tarixiy asar deya olmaymiz. Sababi asar muallifi Shayx Sharaf hikoyatlarni o'quvchilarga yetkazishdan maqsad tarixiy ma'lumotlarni emas, balki insonga didaktik ruh bag'ishlashga, uning imon-

[1] Ikkinchi xalifa Umar ibn Affon. Muhammad (s.a.v.) haqni botildan Umar bilan ayirganligi uchun unga Faruq laqabini bergan. (Ibn Sa'd, III, 270-271).

e'tiqodiga estetik ta'sir qilishni maqsad qilib olgan. Hayotni badiiy aks ettirish voqealikni obrazlar orqali aks ettirishdan iborat bo'lib, bu badiiylikning asosidir[2].

Asarda, shuningdek, boshqa ko'plab tarixiy shaxslar obrazi ham uchraydi. Ayni shu obrazlardan ba'zilari, ustuvor o'rin tutganlari muallifning mazhab hamda tariqat bobida kimga vorislik qilishini ham ko'rsatib beradi. "Mu'inu-l-murid"da shofi'iylik mazhabi asoschisi Imom Shofi'iy nomi ikki bora tilga olinadi:

Tutar kumni Yakub reva Shafi'i
Bu toprakdin o'zge reva kilmadi;

Imam Shafi'i hem taki bakisi
Biri kavli birle asir kazisi
Hukum kilsa bolur biling muttafik
Amel kilsa bolur tutup kayisi.

Yuqoridagilardan ma'lumki, ushbu kitobda fiqhiy-shariy masalalar ayni bir mazhab doirasida emas, balki sunniylikdagi to'rt asosiy mazhab (hanafiy, molikiy, shofi'iy, hanbaliy) tamoyillaridan kelib chiqib bayon etilgan. Bu ham muallifning diniy bilimlarni qanchalik chuqur egallagani, fiqhiy masalalarni yaxshi bilishi va teran mushohada sohibi ekanligidan dalolat beradi. Biroq asarda hanafiy mazhabi g'oyalari yaqqol yetakchilik qiladi, turli masalalar va ba'zi o'rinlarda muallif Imomi A'zam ta'limoti asosida fikrini bayon etadi:

Muazzam imamdin kavul kilse bir
Ol ekki imamnung so'zi bolsa bir
Ya mufti, ya kazi, ya mumin kishi
Kayu biri birle amel kilsa bir.

Haber berdi Allah kelami bize
Teyemmum kiling tep arig' yer uze
Taki ne kim erse bu yer jinsidin
Hanife katinda teyemmum seza.

Hanafiy mazhabi to'rt ahli sunna mazhablarining eng avvalgisi hisoblanadi. Bu mazhabning ahamiyatli tomonlaridan biri shundaki, bu mazhab faqatgina Abu Hanifa rohmatullohi alayhning fikrlari bilan emas, balki shogirdlarining qavllari bilan ham mustahkamlangan. Shu bilan birga Abu Hanifa rohmatullohi alayh fiqh fanini alohida fan sifatida tartiblagan zotdirlar. Imom Shofi'iyning mashhur so'zlarida u kishi: "Fiqhda barcha olimlar Abu Hanifaning oila ahlidir. U zotga teng kelib masala ayta oladigan kishi yo'q", deydilar[3]. Shayx Sharaf ham Abu Hanifaga kuchli hurmat ko'rsatib, u zotni "Alif"ga qiyoslaydi:

Torumlar buzag'u kozilar neche

[2] Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўкитувчи, 1967. – Б. 39.

[3] https://muslim.uz/uz/e/post/15749-hanafiy-mazhabi-dalillarining-ustunligi?page=4&per-page=1.

Alif, mim buyurmas zekat bu uche
Ebu Yusuf aytur, bulardin bering
Eger bolsa sani zekat berguche.

Muallif bu yerda kitobat san'atidan mohirona foydalanib, ikki yirik imomga ishora qilmoqda. Alif arab alifbosining hamda Abu Hanifa ismining birinchi harfi bo‘lib, matnda muallif "Alif" deyish orqali Imomi A'zamga ishora qilmoqda. Mim esa arab alifbosining yigirma to‘rtinchi va (imom) Muhammad ismining birinchi harfidir. Bu o‘rinda Shayx Sharaf "Mim" deyish orqali Imom Muhammadga ishora etmoqda. Alif mumtoz Sharq adabiyotidagi an'anaviy detallarlardan biri bo‘lib, Allohning borligi va birligini ifodalash uchun ishlatiladi. Shayx Sharaf ushbu jumlani Abu Hanifaga nisbatan ishlatishi imomning hurmati va ta'siri naqadar yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi.

Asarda mashhur shayxlar, tariqat arboblari haqida so‘z boradi. Kitobning "Irodalar" bobida muallif Alloh insonning qalb ko‘zini ochishini so‘raydi. Toki inson qalb ko‘zi ochilib, o‘z-o‘zidan kechmaguncha haqiqiy murid bo‘la olmasligini aytadi:

O‘zungdin uzulgun achilsin hayat
Tirig erken evvel kerek o‘lse-sen

Misol tariqasida esa mashhur avliyo-shayxlarni keltiradi:

Bu ko‘z ko‘rmishi, yok kulak tinglemish
Ko‘ngulge kechib bir nishan anglamish
Juneyd[4], Shibli[5], Dihkan[6], Uveys[7], Bayezid[8]
Taki kim kim anlar so‘ngin so‘nglamish.

Bu ko‘z ko‘rishi, quloqning eshitishi, ko‘ngilda bir nishon bo‘lishidir. Junayd, Shibli, Dehkon, Uvays, Boyazid va boshqalar oxir vafot etdilar. Bu dunyo ekin ekiladigan bir yerdir. Qiyomat kunida yaxshilik va yomonliklar ikki tarafda bo‘ladi. Bugun nima eksang, ertaga shuni o‘rasan. Haqiqiy kunda go‘zal qiyofada tirilgin. Ko‘rib ibrat, eshitib o‘git ol, deydi muallif. Ibrat va o‘git uchun yuqorida nomlari qayd etilgan shayxlarni misol qilib keltiradi. Ushbu shayxlar islom tasavvufining ulug‘laridan bo‘lib, nomlari Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida ham zikr etilgan. Darhaqiqat, Junayd Bag‘dodiy ham, Boyazid Bistomiy ham va nomi tilga olingan boshqa shayx va valiylar ham islom dini arkonlarini bajarishda, fiqhga amal qilishda, tasavvufda nafsni yengishda namuna bo‘la oladigan komil inson, ulug‘ pirlardan bo‘lishgan. Ushbu obrazlar orqali Shayx Sharaf murshidlarga haqiqiy namunalar keltirgan.

[4] Hijriy 893-910-yillarda yashagan Islom mutasavvifi Junayd Bag‘dodiy.
[5] Mashhur avliyo va mutasavvif, Junayd Bag‘dodiyning shogirdi .
[6] Islom mutasavviflaridan biri.
[7] Hazrat Muhammad (s.a.v.) zamonida yashagan mashhur valiy Uvays Qaraniy.
[8] Ulug‘ avliyolardan biri Boyazid Bistomiy.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Recep Toparli, Mustafa Argunşah. Mü'inü'l-mürid. Inceleme-Metın-Çeviri-DizinTipkibasım. ANQARA, 2008. – 322 c
2. A.Zeki Velidi, "Harezm'de Yazilmiş Eskı Türkçe Eserlar, Türkıyat Mecmuası, II, 1926, İstanbul, 1928, s.315-345.
3. Abulg'oziy Baxodirxon. Shajarayi tarokima. T.,1995-26-bet
4. Назаров Б.Н. Ислом агиографияси тизимида мақоматнинг ўрни ва унинг бадиийуслубий хусусиятлари (Баҳоуддин Нақшбанд мақоматлари асосида). Филология фанлари докторлик дисс. – Тошкент: Тошкент давлат Шарқшунослик институти, 2000. – Б. 23